



QASHQADARYODA VAQTLI MATBUOTNING RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISHI

Abdullayev Dilshod Xayitovich

Qarshi davlat universiteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7218389>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 17th October 2022

KEY WORDS

*matbuot, Qashqadaryo, gazeta
va jurnallar, axborot xizmati,
bosma, matbuot nashrlari*

ABSTRACT

Ushbu maqolada matbuotning rivojlanishi va shakllanishi, yurtimizda chop etilgan matbuot namunalari va Qashqadaryoda vaqtlilik matbuotning rivojlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Matbuotning paydo bo'lish sabablari matbuot nazariyasidagi eng muhim masalalardan biridir. Zeroki, matbuot paydo bo'lishining ijtimoiy-siyosiy va tarixiy sabablari aniq bilingandagina uning ijtimoiy tabiatini va jamiyat hayotidagi rolini aniq mushohada etish mumkin.

Matbuotning paydo bo'lish sabablari to'g'risida turli xil qarashlar mavjuddir. Dunyoning yetakchi matbuotshunos olimlari matbuotning kelib chiqish sabablarini kishilarning informatsiyaga, yangiliklarni bilib turishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'laydilar. Masalan, AQSHda jurnalistika sohasidagi asosiy nazariy asar hisoblangan "Matbuotning to'rt nazariyasi" deb nomlangan kitobda shunday fikr bayon qilingan. Uning mualliflari F.Sibert, Piterson va U Shrammlar matbuotning vazifasini "xabardor qilish, yangilikni sotish va o'quvchilarning ko'nglini ochish"dan iborat, deb ta'riflaydilar va uning paydo bo'lishida insoniyatning informatsiyaga bo'lgan

ehtiyoj asosiy rol o'ynagan, deb ta'kidlaydilar.

Rim universitetining professori F.Fatorelloning "Informatsiyaning ijtimoiy texnikasi" deb nomlangan asarida ham yuqoridagi fikr olg'a suriladi. Marksizm-leninizm tarafdorlari esa matbuotning kelib chiqish sabablarini jamiyatdagi g'oyaviy qarama-qarshiliklar, sinfiy kurash natijasidir, deb ko'rsatadilar. Ularning fikricha matbuot sinfiy jamiyatda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning, sinfiy qarama-qarshilikning kuchayishi bazasida vujudga kelgan va sinflar qo'lida g'oyaviy ta'sir etish vositasi, sinfiy kurash quroli bo'lib xizmat qiladi, deb ta'kidlanadi. Matbuot paydo bo'lishining tub sabablari nimalardan iborat.

Matbuot paydo bo'lishining tub sabablari avvalo insoniyat jamiyati tarixi, taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Matbuot tarixning tabiiy mahsulidir, uni insoniyatning tarixi, hayoti, taraqqiyotidan ajratib bo'lmaydi. Matbuotning paydo bo'lishining tub



sabablari kishilikning ilk davrlariga borib taqaladi. Insonlarning bir-biri bilan o'zaro muloqatda bo'lish, bir-birlariga biron tushunchani yeikazish ehtiyoji awalo tilning paydo bo'lishiga, so'zning vujudga kelishiga sabab ho'lganligi ma'lumdir. Keyinchalik esa jamiyat, inson tafakkurining taraqqiyoti bilan yozuv paydo bo'ldi, bu esa o'z navbatida bosma so'z — matbuotning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bunda, albattaki, kishilarning informatsiyaga bo'lgan ehtiyoji asos bo'ldi. Ammo matbuot o'z-o'zidan, shundayicha paydo bo'lib qolmadi.

Garchi insoniyatning informatsiyaga bo'lgan ehtiyoji matbuotning paydo bo'lishi uchun asos, poydevor bo'lgan bo'lsada, uning paydo bo'lishida yana qator ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va tarixiy sabablar, ehtiyojlar ham mavjuddir. Matbuot avvalo insoniyat sivilizatsiyasining qonuniy mahsuli va uni taraqqiy ettiruvchi muhim omillardan biridir. Davriy matbuot jamiyat taraqqiyotining shunday bir bosqichida vujudga keladiki, bunda:

a) yozuv paydo bo'lgan va rivojlangan bo'lishi kerak;

b) aholining ko'pchilik qismi savodxon bo'lishi kerak;

v) matbuotning texnikaviy asosi yaratilgan, bosma dastgoh va boshqa zarur asboblarni ishlab chiqilgan bo'lishi kerak;

g) jamiyatdagi hukmron va boshqa guruhlar, tabaqalar bosma so'z vositasi bilan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaat ko'rish ehtiyojini sezgan bo'lishi kerak. Ya'ni, jamiyatdagi mavjud sinf, tabaqa, guruhlar yoki shaxslar xalq ommasiga o'z g'oyaviy ta'sirini o'tkazish, ommaga o'z fikri, g'oyalarini bildirish uchun matbuotdan foydalanish ehtiyojini sezishi kerak. Shu bilan birlikda matbuot nashrlari chiqarib, sotib mablag' orttirish, foyda olishdan iborat bo'lgan iqtisodiy ehtiyoj ham mavjud

bo'lishi mumkin. Ana shu ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy tarixiy ehtiyojlar matbuotning paydo bo'lishiga, uning nashrlari, ommaviy axborot vositalarining bcvosita tashkil topishiga sabab, turtki bo'lib xizmat qiladi.

Insoniyatning informatsiyaga bo'lgan ehtiyoji matbuotning paydo bo'lishida asos, bosh ehtiyoj bo'lgan bo'lsa-da, kishilik jamiyatida paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy ehtiyojlar uning bevosita vujudga kelishida turtki bo'lgan.

Kishilik jamiyati tarixidagi ilk nashrlardan tortib to hozirda foaliyat ko'rsatib kelayotgan barcha matbuot nashrlari, ommaviy axborot vositalari fikrimizning dalili bo'la oladi. Masalan, eramizdan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan chiqarilgan ganchdan yasalgan maxsus taxtachalar matbuotning ilk kurtaklari sanaladi. Bular "Acius Senatus" ("Senat voqealari") va "Actus populi Romani" ("Rim xalqi hayotiga doir voqealar") deb atalib, ularda o'sha davr hokimiyatining oliy boshqaruv idorasi bo'lgan senat yig'ilishi haqidagi xabarlar va Rim xalqi hayotiga doir voqealar yozilar va ular odamlar o'qishlari uchun shaharning govjum joylariga qo'yib qo'yilardi. Bu gips taxtachalar garchi o'sha davr odamlariga turli informatsiyalar yetkazib bersada, uning chiqarilishiga sabab Rim imperiyasi hukmdorlarining o'z qarashlarini ommaga yetkazish, unga g'oyaviy ta'sir ko'rsatib turishdan iborat bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ehtiyoji bo'lgan edi.

Keyinchalik, VIII asrda Xitoyda "Poytaxt yangiliklari" deb atalgan taxtaga o'yib yozilgan gazetalar paydo bo'ldi. Xuddi shunday ilk nashrlar Yaponiyada ham taxtaga o'yilib, "Bosma gazeta" nomi bilan chiqarildi. Mazkur nashrlar ham kishilarga yangiliklar yetkazib berish bilan birlikda



o'sha mamlakatlar hukmdorlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, manfaatlarini aks ettirgan edi.

Bosma dastgohning ixtiro qilinishi insoniyatning madaniyma'naviy taraqqiyotida ulkan qadam bo'ldi va matbuotning keng ko'lamda rivojlanishiga yo'l ochib berdi. XVI asrning o'rtalariga kelib Yevropada bosma dastgoh ixtiro qilindi. (Germaniyada Iogan Gutenberg kitob bosish uchun qo'llaniladigan ilk uskunalarni yasadi, 1564—yilda esa Rossiyada Ivan Fyodorov tomonidan birinchi bosma kitob - "A nocm i" nashr clildi).

Keyinchalik bunday bosma dastgohlardan ilk matbuot nashrlari - gazetalar nashr etishda foydalanila boshlandi. Yevropada birinchi bosma gazetalar paydo bo'ldi. Bular — 1609—yilda Germaniyada nashr etilgan "Oder saytung", 1622—yilda Angliyada nashr etilgan "Uikli nyus from", 1631—yildan fransuz tilida chiqa boshlagan "Lagazeta" boshqalardan iborat edi. Bu gazetalar ommaga informatsiya yetkazib berish bilan birlikda o'sha davr hukmdorlarining siyosatlariga xizmat qilar edi. Rossiyada birinchi bosma gazeta Petr I ning buyntg'i bilan 1702—yildan e'tiboran chiqa boshlagan "Ведомост" gazetasi bo'lib, u ham podshoni ulug'lash, rus imperiyasini mustahkamlash uchun xizmat qildi.

Turkistondagi birinchi bosma gazeta 1870—yildan Toshkentda chiqarila hoshlangan "Туркестанские ведомост" va uning o'zbek tilidagi ilovasi "Turkiston viloyatining gazetasi" bo'lib, bu nashr ham o'lkani Rossiyaga tobe qilib saqlashda chor podshosining ijtimoiy-siyosiy manfaatlarini uchun xizmat qildi.

O'sha davr gazetalarining frontortiga oid maqolalarini ko'zdan kechirarkansiz, oddiy xabarlar ham frontda jang olib borayotgan

harbiylarning ruhini ko'tarish, ishonchini mustahkamlash, bola-chaqasidan ko'nglini to'q qilishga qaratilganini ko'rish mumkin. Misol tariqasida Qashqadaryo viloyatida nashr etilgan gazetalarini tahlil qilsak yuqoridagi fikrlar ochiq va ravshanligini ko'ramiz.

Kitob tumanidagi "G'alaba" gazetasi muharriri Haydar Qayumovning "Gektaridan 130 puddan arpa" sarlavhali maqolasida aytilishicha, tumandagi "Birlik" kolxozining yuzpudchilar harakatiga qo'shilgan Berdi Husainov boshliq g'allachilik brigadasi a'zolari 13,5 gektar yerdagi arpani o'z vaqtida o'rib-yanchib, gektariga 130 puddan hosil ko'tarishgan. Bu borada Varganzadagi Abdulla Karimov boshliq zveno ishi ham yuqori baholangan. "Suvorovchi" gazetasining 1944 yil 23 mart sonida O'zbekiston paxta dalalarida 100 ming gektarga yaqin yer haydalgani, bu ayniqsa, Qashqadaryo va Surxondaryoda qizg'in tus olgani qayd etiladi.

1944 yil iyunda "Muborak" qorako'lchilik sovxoz jamoasi ko'klamda har yuz ona qo'ydan 160 qo'zi olgani, sut va pishloq yetkazib berish ortig'i bilan uddalangani, davlatga 3 ming dona qorako'l teri topshirilgani, shu bilan birga, Mamadiyrov brigadasida chorva yaxshi parvarish qilinayotgani, ferma xodimi Sandir Avazov o'z ishlarini ko'ngildagiday bajarayotgani haqida ma'lumot berilgan.

Shu yil avgustda Koson rayon komiteti sekretarining yordamchisi Nuriya Xasanshina tahririyatga xat yo'llab, frontchilarning oilalariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik haqida ma'lum qiladi. Jumladan, o'sha yil bahorda 3020 harbiyning oilasi uchun 542 gektar yerga ekin ekib berilgan. Vaqtincha va doimiy foydalanish uchun 847 bosh qoramol tarqatilgan. Frontchilar oilalariga kolxoz pravleniyelari tomonidan



44 ming 683 so'm, davlatdan 14 ming 134 so'm ajratilgan. Bunday oilalar uchun 237 gektar yerga ekilgan g'alla hisobidan maxsus fondlar tuzilgan.

"Dushmanga qarshi olg'a" gazetasi 1944 yil 15 iyun sonidagi xabariga ko'ra, Shahrisabzda yuqori sifatli pishloq ishlab chiqaradigan O'zbekistondagi birinchi zavod ishlay boshlagan. Zavodning asbob-uskunalari shu joyning o'zida tayyorlangan. Yangi korxonada so'nggi ikki oyda 3 tonnaga yaqin pishloq ishlab chiqarilgan. O'zbekiston go'sht-sut sanoati xalq komissarligi pishloqning sifatini juda yaxshi deb topgan.

Front gazetalarida Qashqadaryoga taalluqli xabarlar asosan qishloq xo'jaligiga oid. Jumladan, g'alla, arpa, paxta tayyorlangani, davlatga go'sht topshirish rejasi uddalangani va hokazolar. Bu yo'lda samarali ishlaganlar esa rag'batlantirib borilgan. "Vatan sharafi uchun" gazetasining 1945 yil 7 yanvar sonida Oliy Sovet Prezidiumining farmoni bilan turli orden va medallar bilan taqdirlanganlar ro'yxati keltirilgan. Ular orasida Yakkabog'dagi "O'zbekiston" kolxozi raisi Imom Abdiyev, Kitob tumanidagi "Qizil yulduz" kolxozi raisi Jo'ra Elboyev, Qarshi tumanidagi "Kommunizm" kolxozi raisi Rahmat Imomov, Shahrisabzdagi "Qizil agronom" kolxozi raisi Turdi Qorayev nomlari bor. 1944 yil 26 yanvar sonida esa frontda yurgan Koson tumani Po'lati

qishlog'ilik kapitan Terkov Doniyorovning surati bosilgan.

Qashqadaryo — Qashqadaryo viloyati hokimligining ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 1925-yil 22-mayda Qarshi shahrida "Qashqadaryo" nomi bilan nashr etila boshlagan. Keyinchalik "Sotsializm alangasi", "Yengish" (1934), "Qashqadaryo haqiqati" (1935) nomlarida chop etilgan. 1960-yil 25-yanvarda Qashqadaryo viloyati tugatilib, Surxondaryo viloyatiga qo'shilishi munosabati bilan "Qashqadaryo haqiqati" gaz.si o'z faoliyatini to'xtatgan. 1964-yil 7-fevralda yana chiqa boshlagan.

1997-yil 11-iyunda "Qashqadaryo haqiqati" va "Kashkadarinskaya pravda" gazetalari tahririyatlari birlashtirilib, "Qashqadaryo" nomida o'zbek va rus tillarida nashr etilgan. 2005-yil 1-yanvardan "Q." va "Novosti Kashkadari" gaz.lari har qaysisi alohida mustaqil nashr sifatida o'zbek va rus tillarida chop etilmoqda. Sahifalarida viloyat aholisining respublika, viloyat va dunyo miqyosida ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor etish va ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, xalq farovonligi va turmush darajasini mustahkamlash ishlariga jalb qilishga oid materiallar berib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, matbuot xizmati qadimdan rivojlangan va hali ham rivojlanib kelayotgan sohadir. Bugungi globallashuv davrida ham biz o'z hayotimizni matbuot xizmatisiz tasavur eta olmaymiz.

References:

1. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida. O 'zR qonuni. To'rtinchi hokimiyat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. Toshkent, "O'zbekiston", 1998.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent, "O'zbekiston", 1992.
3. I.A. Karimov. Buyuk kelajak sari. Toshkent, "O'zbekiston", 1999.



4. Q.T.Emazarov, Yo.M.Mamatova, I.E.Toshaliyev, Sh. Q.Emazarov. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2002.